

Bank Kreditlari Auditining Yaxshilash Yo'llari

Yahyoyev To'liqin Ismatullayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bank kreditlarini audit qilishni takomillashtirish maqsadida auditorlik tanlash statistik nostatistik usullardan birini qo'llash ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Statistik tanlash - bank kreditlarini tasodifiy tanlashga asoslangan hamda tanlash natijalarini baxolashda, tanlash xatarini baxolashda ehtimollar nazariyasidan foydalanadigan usuldir. Ushbu maqolada quyidagi ma'lumotlar kengroq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jalik jamiyatlari, shirkatlar, audit, resurs, fond, birja, qimmatli qog'oz.

Kirish. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi, auditorni maqsadi yetarli miqdorda o'z vaqtida va ishonchli bo'lgan da'lil isbotlarni olishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun auditoridan auditorlik dalillarini olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va shu orqali olinayotgan axborotning foydaliligini solibitirib borishi hamda xarajatlarni kamaytirib borishi talab qilinadi. Bu borada auditorlik dalillarini olishda tekshiruvlarda tanlash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali tekshirish uchun vaqt tejalishiga, tekshiruv samaradorligini oshishiga va xarajatlarning iqtisod qilinishiga erishiladi. Bizningcha tanlanma tekshirish natijalarini baxolashda matematik formulalar hamda turli jadvallardan yetarli tarzda foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan xulosalarni olishga yordam beradi.

"Oqtoshdon" OAJ da ham auditorlik tekshiruvi jaroyonida bank kreditlarini auditini tanlama tekshiruv o'tkazish bo'yicha talablar va tanlash qoidalrini aniqlash hamda shu yo'l bilan olingan natijalarni baxolash auditning xalqaro standartlariga asosan ishlab chiqilgan auditorlik faoliyatining milliy standard № 14 «Auditorlik tanlash» tartibga solinadi. Auditning xalqaro amaliyotida auditning tanlanmasi auditning xalqaro standard № 530 - «Auditorlik tanlash» nomli xalqaro standartga muvofiq amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Bank kreditlarini audit qilishni takomillashtirish maqsadida auditorlik tanlash statistik nostatistik usullardan birini qo'llash ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Statistik tanlash - bank kreditlarini tasodifiy tanlashga asoslangan hamda tanlash natijalarini baxolashda, tanlash xatarini baxolashda ehtimollar nazariyasidan foydalanadigan usuldir.

Statistik tanlash usulining afzalligi - bu tanlanma xatarning miqdoriy aniqligidir.

Nostatistik tanlanma tekshiruvda auditor xatami miqdoriy jihatdan baxolashni amalga oshirmaydi. Buning o'rniga, o'rganilayotgan to'plam to'risida xulosalar auditorning subyektiv fikrlariga asoslanadi. Nostatistik tanlanma tekshiruvning asosiy kamchiligi tekshiruv uchun zarur bo'lgan tanlanmaning eng kam miqdorini aniqlash imkoni yo'qligi hamda tanlanma tekshiruvda aniqlangan xatoni jami tekshirilayotgan to'plam ga joriy qilish imkoni mavjud emasligidir.

Tanlash natijalarini statistik baholashda yutuq va kamchiliklari

Natijali bajarilish usuli	Tanlash usuli	
	Ehtimoli	
	Foydabiligi	Kamchiligi
	Bosh to'plam katta bo'lganda foydali;	Qiyin matematik apparat bo'lib uni amalga oshirishda alohida malaka talab etiladi
	Auditorning subyektiv fikrlashidan mustaqil	Tekshirilayotgan to'lam mazmun jihatdan bir xil bo'lishi kerak
Statistik	Tanlash uchun bar bir elementga teng ehtimollikda qaraladi	To'plam katta miqdordagi elementlardan tarkib topgan bo'lishi kerak
	To'g'ri natija olish uchun zaruriy tanlanma hajmini hisoblash imkonini beradi	Kutilayotgan xato o'lchami kichkina bo'lishi kerak
	Aniqlangan xatarlar darajasini pasaytirish	Bir xil nazorat ostida va kuzatish birligi har xil

Bank kreditlari auditda tanlanma tekshiruvini o'tkazishda uning asosiy qadamlarini aniqlash va ularning har biriga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

“Oqtoshdon” OAJ da bank kreditlari auditini o'tkazish bosqichlari:

- Tekshiruv yo'nalishlarini aniqlash;
- chetlanish mezonlarini aniqlash;
- tekshiriladigan bosh to'plamni aniqlash;
- tanlash usullarini belgilash;
- tanlash hajmini aniqlash;
- tanlanmani shakllantirish;
- aniqlangan xato va kamchiliklarni taxlil qilish;
- barcha tanlanma tekshiruvlari bo'yicha olingan natijalarni baxolash va butun to'plamga tatbiq etish.

Tekshirishni boshlashdan oldin yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni aniqlab olish zarur.

Bank krediti hisob-kitobini tekshirishda auditor quyidagi xato va kamchiliklarni oldini olishga harakat qilish kerak:

- boshlang'ich hujjatlarning mavjudmasligi;
- ko'rsatilgan hujjatlarda zaruriy rekvezitlarni yo'qligi;
- boshlang'ich hujjatlarda xatolarning mavjudligi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha “Oqtoshdon” OAJ da bank kreditlarini audit qilishda yetarli, to'g'ri, o'z vaqtida va ilmiy asoslangan dalillar olishda statistik tanlanma usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, statistik tanlanma usuli matematik statistika va ehtimollar nazariyasiga asoslangan. Shu nuqtai nazardan, statistik tanlash auditorlik tekshiruvida, ayniqsa xalqaro standartlar asosida tekshiruv o'tkazishda g'oyat istiqbolidir.